FARG‘ONA VILOYATI UCHKO‘PRIK TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 31 - oktabr 205-11-162-Q/23 Uchko‘prik tuman hokimligi

Uchko‘prik tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-642-son “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi O‘RQ-641-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-son qaroriga asosan tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslarga 2024-yilda ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Tumanda belgilanishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlarining eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash bo‘yicha maxsus komissiyaning tarkibi 1-ilovaga hamda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan tumandagi korxona, tashkilot va muassasalarda 2024-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish taqsimoti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. SHaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun-bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini

tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun-ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun-ularning kasblari bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun-mehnat sharoitlari bo‘yicha attestasiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatgichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun-ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun-ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiruv zahirasiga kiritilgan shaxslar uchun-ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

odam savdosidan jabrlanganlar shaxslar uchun-ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

3. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlariga Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlar tashkil etilishini ta’minlasinlar;

korxona va tashkilotlar, 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishi va tayyorligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilishi shart;

Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlanadi, bu haqda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinadi.

4. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarorini bajarmagan tashkilotning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida” gi 19-2019-B sonli buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 3163, 31-may 2019-yil) muvofiq, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam ish o‘rnidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga - rejadan ortiq qabul qilingan har bir hodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi inobatga olinsin.

6. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (X.Boratov) besh kun muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

7. Belgilansinki, ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Maxsudov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A. Q. Asqarov**

Uchko‘prik tuman hokimining
2023-yil 31-oktabrdagi
205-11-162-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Uchko‘prik tumanida belgilanishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlarining eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash bo‘yicha maxsus komissiyaning

TARKIBI

1.	U.Maxsudov	Komissiya raisi, tuman xokimining birinchi o‘rinbosari
2.	I.Sultonov	Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Uchko‘prik tuman bo‘limi boshlig‘i
3.	A.Sotvoldiyev	Tuman IIB boshlig‘i
4.	S.Azizov	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
5.	B.Imomov	Tuman tibbiyot birlashmasi bosh vrachi
6.	X.Boratov	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i

Izox: Komissiya tarkibidagi rahbarlar boshqa ishga o‘tgan taqdirda o‘rniga tayinlangan rahbar a’zo hisoblanadi.

Uchko‘prik tuman hokimining
2023-yil 31-oktabrdagi
205-11-162-Q/23-son qaroriga
2-ilova

2024 йилда Учкўприк тумани бўйича ижтимоий муҳофазага муҳтож ва иш топишда қийналаётган шахсларни ишга жойлаштириш учун банд қилиб қўйилган иш ўринлари тўғрисида

МАЪЛУМОТ

№	Ижтимоий мухофазага мухтож, иш топишда қийналаётган ва меҳнат бозорида тенг шартларда рақобатлаша олмайдиган шахсларни ишга жойлаштириш учун иш ўринларини белгилаш таклиф этилаётган корхона ва ташкилотлар рўйхати (корхона ва ташкилотларнинг номи)	Штат жадвали бўйича ходимларининг умумий сони	Келгуси йилга захирага қўйиш таклиф этилаётган иш ўринлари сони	шу жумладан:						
				14 ёшгача ва ногирон болалари бўлган ёлғиз ва кўп болали ота-оналар учун банд қилинган иш ўринлари сони	Умумий ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларининг давлат грантлари бўйича таълим олган битирувчилари учун банд қилинган иш ўринлари сони	Сафарбарлик чақириқ захирасида хизматни ўтаган ва Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари сафларидан муддатли ҳарбий хизматдан бўшатилган шахслар учун банд қилинган иш ўринлари сони	Ногиронлиги бўлган шахслар учун банд қилинган иш ўринлари сони	Пенсия олди ёшидаги шахслар учун банд қилинган иш ўринлари сони	Жазони ижро этиш муассасаларидан ёки суднинг қарорига кўра тиббий тусдаги мажбурлов чоралари қўлланилган шахслар учун банд қилинган иш ўринлари сони	Одам савдоси қурбонлари учун банд қилинган иш ўринлари сони
А	**В**	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**
1	"UCHKUPRIK AGRO PILLA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	2162	10	7			3			
2	TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	2079	94	13	37		43	1		
3	"UCHKO'PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 20-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	185	7		2		5			
4	"UCHKO'PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 9-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	185	4		1		3			
5	"UCHKO'PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 12-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	164	5		2		3			
6	"UCHKO'PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 19-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	129	5		1		4			
7	"UCHKO'PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 17-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	116	5		1		3	1		
8	"UCHKO`PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 5-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	111	7	1	4		2			
9	"UCHKO'PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 23-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	115	6		4		2			
10	"UCHKO`PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 24-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	106	6		3		3			
11	\UCHKO`PRIK TUMAN 31-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI\ MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI	98	7		4		3			
12	"UCHKO`PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 9-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	86	4				3	1		

13	"UCHKO'PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 14-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	99	4	1			3			
14	"UCHKO`PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 25-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	80	5	1	2		2			
15	"UCHKO'PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 7-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	83	5		3		2			
16	"UCHKO`PRIK TUMAN 3-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI	77	5	1	1		2		1	
17	\UCHKO`PRIK TUMAN 29-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI\ MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI	77	4		1	1	2			
18	"UCHKO`PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 26-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	70	3	1	1		1			
19	"UCHKO`PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 16-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	72	5	1	2		2			
20	"UCHKO`PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 13-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	66	4		2		2			
21	"UCHKO'PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 51-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	60	4		2		2			
22	"UCHKO`PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 10-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	46	3		2		1			
23	"UCHKO`PRIK TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 32-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	43	2		1		1			
24	"UCHKO'PRIK TUMAN 40-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI	31	2		1		1			
	жами:	**6 340**	**206**	**26**	**77**	**1**	**98**	**3**	**1**	**0**